

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA BIOLOGIYANI O'QITISHDA O'QUVCHILARNI KREATIVLIGINI OSHIRISH

Karimova N.A.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
p.f.f.d.,(PhD)dotsent

Xaitboyeva O.S.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
magisrtanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15124743>

Annotatsiya: Ushbu maqola umumiy o'rta ta'lif maktablarida biologiya darslarini tashkil etishda o'quvchilarning kreativligik kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan innovatsion ta'lifni tashkil etishning didaktik jihatlarini rivojlantirish, o'quvchilarning kreativ yondashuv asosida kompetensiyalarini shakllantirishda Xalqaro baholash dasturi - PISA topshiriqlarini turli shakllarini ishlab chiqish asosida takomillashtirish va umumiy o'rta ta'lif maktablarida o'qituvchilarining Biologiya faniga oid bilimlarini kreativ topshiriqlar asosida kompetensiyaviy yondoshuvini oshirishning metodik tizimini yaratilganligidan iborat

Kalit so'zlar: innovatsiya, kreativlik, kompetensiya, fikrlash, ijodkorlik, metod, o'quvchi, o'qituvchi.

Innovatsiyalar kundalik turmushimizda qulayliklar yaratadi, og'irimizni yengil, uzog'imizni yaqin qiladi. Shu tarzda kreativlik taraqqiyotning ajralmas bo'lagiga aylangan. Barcha sohada ijodiy fikrlovchi mutaxassislarga talab katta. Dunyoga mashhur dasturiy mahsulotlar, mobil telefonlar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar mutaxassislaridan har kuni yangi g'oya so'raladi. Mehnat bozorida kreativ fikrlovchi mutaxassislarga talab oshib borayotgan bir paytda, ta'lif jarayonida ham o'quvchi - o'quvchilarning noodatiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Kreativ fikrlash – bu innovatsion (yangi, novator, original, nostandard, noodatiy va hokazo) va samarali (amaliy, natijaviy, tejamlı, optimal va hokazo) yechimlarni topish, yangi bilimlarni egallash, tasavvurni ta'sirchan ifodalashga qaratilgan g'oyalarni ishlab chiqish, baholash va takomillashtirish jarayonida samarali ishtirok etish qobiliyatidir.

Biologiya fanlarini o'qitishda ham o'quvchilarni kreativlik qobiliyatini oshirishga qaratilgan metodlar hozirgi kunda biologiya ta'limi jarayonidagi muhim talablardan biri hisoblanadi. Chunki, o'quvchilarning kreativ fikrlash sifatlariga ega bo'lishlari ularda o'quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalarni yaratish, bir qolipa fikrlamaslik, o'ziga xoslik va tashabbuskorlikka ega bo'lishlariga yordam beradi.

Biologiya tabiiy fanlar ichida keng qamrovli va amaliy ahamiyatga ega soha bo'lib, u o'quvchilarda tabiatni tushunish, ilmiy fikrlash va hayotiy muammolarni echish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Xuddi shuningdek zoologiya fani ijodkorlikni rivojlantirish uchun noyob imkoniyatlar taqdim etadi. Chunki bu fan nafaqat o'quvchilarda ilmiy bilimlarni shakllantiradi, balki ularga tabiatni kuzatish, muammolarni hal qilish va innovatsion fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Zamonaviy ta'lilda biologiyani faqatgina ma'lumotlarni yodlash faniga aylantirish o'quvchilarning qiziqishini susaytiradi va ularning ijodiy qobiliyatlarini cheklaydi. Shu sababli, biologiyani o'qitishda interfaol usullar, kreativ yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zaruratga aylanmoqda.

Butun jahon ilm-fan taraqqiyotida, ilmiy tadqiqot markazlari va oliv ta'lim muassasalarida kreativ fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish masalalari bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, Zilinadagi Universitet kreativ fikrlashni rivojlantirishning yangi usul va vositalarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan tatqiqotlar olib bormoqda. Hozirda xalqaro va milliy ta'lim tizimlarida STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) tamoyillariga asoslangan ta'lim keng rivojlanmoqda. Shuningdek, Nardo va Matthewsning tadqiqotlari tabiiy fanlar darslarida STEAM yondashuvining qo'llanilishi o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni texnologik jihatdan zamонавиу loyihalar yaratishga undashda katta rol o'ynashini ta'kidlaydi. Ushbu manbalar, shuningdek, tabiiy fanlar bilan bog'liq amaliy loyihalarning o'quvchilar orasida ko'proq qiziqish uyg'otishini va ularning kasb tanlashiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatmoqda.

STEAM yondashuvi nafaqat biologiya o'qitish jarayonida bilimlarni chuqurlashtirish, balki o'quvchilarning ilmiy va texnologik muammolarga yangicha yondashuvlarini shakllantirishda ham samarali vosita hisoblanadi.

Bu esa biologiya kabi fanlarni o'qitishda ijodkorlik va interaktiv metodlarni qo'llashni talab etadi. O'quvchilarning kreativligini oshirish orqali biologiya fanini o'rganishda innovatsion texnologiyalar, tajribalar va loyihalar yordamida amalga oshiriladi. Milliy ta'lim tizimida kreativ kompetensiyani rivojlantirish zarurati O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan rivojlanish strategiyasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va ijodkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Biologiya fanini o'qitishda kreativ kompetensiyalarni shakllantirish mazkur strategiyaning maqsadlariga xizmat qiladi. Bunday islohotlar davomi sifatida Juhon standartidagi aniq fanlar sifati va savodxonligini oshirish, kreativ fikrlashni baholash mezonlarini ta'lim tizimiga joriy etilganligini ko'rsatish mumkin. Ammo mazkur sohada bir qancha istiqbolli islohotlar olib borilishiga qaramasdan, maktablarda kreativ tatqiqotlar o'tkazish uchun moddiy texnik bazaning yetishmasligi, ya'ni umumta'lim maktablarida o'quv mashg'ulotlarini multimedia, elektron dasturiy vositalardan foydalanish bilan bog'liq bir qancha murakkabliklarning mavjudligi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng ko'lamma va ommaviy ravishda foydalanilmasliklari kabi muammolarining mavjudligi ushbu yo'nalishda tatqiqotlar olib borish zarurligini ko'rsatadi. Bundan tashqari ta'lim jarayonida o'quvchilarning kreativligini oshirish uchun interfaol metodlar, o'zin texnologiyalari, loyiha asosidagi o'qitish, muammoli ta'lim kabi usullardan foydalanish dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu metodlar nafaqat o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, balki ularni mustaqil fikrlash va ijodkorlik bilan masalalarni hal qilishga o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Abdullayev.E. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning pedagogik asoslari.Jamiyat va innovatsiyalarjurnali.2023.15.04
2. Akbatova.S.R. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Xalqaro talim tadqiqotlari kafedrasi oqituvchisi. O'quvchilarda kreativ konikmalarni shakllantirishning samarali usullari
3. Абдуқодиров А.А Таълимда инновацион технологиялар. –Тошкент: Истеъдод,

2008. – 180 6.

4. Nematovna, A. M. (2021). Pedagogy the Effectiveness of the Use of Design Technology in the Development of Research Activities of Students in the Process of Biology Education in Higher Education Institutions. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(3).

